



## SOCIO-ECONOMIC FACTORS OF DEVELOPING WOMEN'S SOCIAL RESPONSIBILITY IN THE IMPLEMENTATION OF UZBEKISTAN'S NEW DEVELOPMENT STRATEGY

*Dilmura Mamatyusupovna Juraboyeva*

*Primary school teacher at General Secondary School No. 40  
Fergana, Uzbekiston*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Women, social responsibility, socio-economic factors, development strategy, society, economic opportunities, state policy.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** The aim of this study is to identify and analyze the socio-economic factors influencing the development of women's social responsibility in the implementation of Uzbekistan's new development strategy. The research examines how women's social activity in society, family and professional responsibilities, economic opportunities, education, and professional training contribute to shaping social responsibility. Furthermore, the role of state policies, social programs, and economic incentives in enhancing women's social and economic engagement is analyzed. The results of the study aim to strengthen women's contribution to societal development, expand their socio-economic opportunities, and provide recommendations for the effective implementation of the new development strategy.

### O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA AYOLLAR IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI

*Dilmura Mamatyusupovna Juraboyeva*

*40-umumiy o'rta talim maktabi Boshlang'ich talim o'qituvchisi  
Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Ayollar, ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy-iqtisodiy omillar,

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida

rivojlanish strategiyasi, jamiyat, iqtisodiy imkoniyatlar, davlat siyosati.

ayollarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqotda ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi, oilaviy va kasbiy mas'uliyatlari, iqtisodiy imkoniyatlari, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik darajasi kabi omillar ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Shu bilan birga, davlat siyosati, ijtimoiy dasturlar va iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ayollarning jamiyat rivojiga qo'shadigan hissasini kuchaytirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va yangi taraqqiyot strategiyasini samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЖЕНЩИН В РЕАЛИЗАЦИИ НОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

*Дильмура Маматюсуповна Джурабоева*

*Учитель начальных классов общеобразовательной средней школы № 40*

*Фергана, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Женщины, социальная ответственность, социально-экономические факторы, стратегия развития, общество, экономические возможности, государственная политика.

**Аннотация:** Цель данного исследования – выявление и анализ социально-экономических факторов, влияющих на развитие социальной ответственности женщин в процессе реализации новой стратегии развития Узбекистана. В исследовании рассматривается, как социальная активность женщин в обществе, их семейные и профессиональные обязанности, экономические возможности, уровень образования и профессиональной подготовки способствуют формированию социальной ответственности. Также анализируется роль государственных политик, социальных программ и экономических стимулов в повышении социальной и экономической активности женщин. Результаты исследования направлены на укрепление вклада женщин в развитие общества, расширение их

**Kirish.** O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy mas’uliyatidagi ma’naviy-axloqiy imperativlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) ayollarning etnomadaniy an’analarga, xalqimiz yaratgan sharqona odob, urf-odat va axloqiy normalariga itoat etganida; 2) turmush tarzi, ijtimoiy faoliyati va xatti-harakatlarida islom dini qadriyatlarini saqlaganida; 3) hayotiy tajribasi, bilimi yuqori kishiga bo‘ysunib, u bilan ahil, ittifoq bo‘lib yashashga, birga ishlashga harakat qilganida; 4) kamtarlik, xushmuomalalik, nazokat, ibo, hayo kabi qadriyatlar doirasida faoliyat ko‘rsatganida; 5) hayotining mazmun-mohiyatini oilasi, farzandlarining sog‘-salomat o‘shishi, farzandlarining ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy kamolida ko‘rishi, buning uchun doimiy qayg‘urishida; 6) mahalla, el-yurt, xalq qabul qilgan ma’naviy-axloqiy normalarni hayot tarzi, faoliyat mezoni, osoyishtalik kafolati sifatida qabul qilganida; 7) har qanday faoliyatini, xatti-harakatini ijtimoiy-axloqiy normalar, mezonlar, ya’ni imperativ bilan baholashga moyilligida.

**Materiallar va metodlar.** Sharqona demokratiya o‘z xususiyatlari va belgilariga ega. Ularning o‘ziga xos jihatlarini tadqiqotchi F.Musayev ochib bergan[1]. Uning fikricha, ayollarimiz sharqona axloq-odob normalariga bo‘ysungani holda, jamiyat va davlat, kelajak va taraqqiyot oldidagi burchlarini ham unutmaydilar. Respublikamiz xotin-qizlari ushbu burchlarini jamiyatimiz va davlatimizning strategik maqsadlari bilan bog‘laydilar. Bu o‘rinda milliy demokratik taraqqiyotimizda xalqimiz, millatimizga xos fazilatlar, ya’ni qadimiylik va zamonaviylikni, an’ana va modernizatsiyani, tarix va kelajakni uyg‘un tasavvur etishga asoslangan yondashuv yuzaga keladi. Buni evolyutsion taraqqiyot yo‘li deyish mumkin.

Mutafakkir Rizouddin ibn Faxriddin shunday deb yozadi: “Xotinlari tarbiyali bo‘lgan xalq tarbiyali, xotinlari tarbiyasiz bo‘lgan xalq tarbiyasiz, ayollari tirishqoq, tadbirkor, irodali bo‘lgan xalq boy bo‘ladi. Insonlar har vaqt ayollar istagani bo‘lajaklar, agarda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojningiz bo‘lsa, ayollarga buyuklik va fazilatlar o‘rgatingiz”[2].

Ayollarning hayot tarzida, oilasida va xulq-atvorida etnomadaniy an’analarga tayanish vorisiylik prinsipini aks ettiradi. Aynan ayol xalqning e’tiborli, e’zozli an’analarini saqlashga, ularni tarixiy-madaniy meros darajasiga ko‘tarishga va avlodlarga yetkazishga intiladi. Shuning uchun ham etnomadaniy an’analar ayol yashagan oilada saqlanib keladi. Keyingi yillarda ayollarning ijtimoiy hayotida islom dini va islomiy qadriyatlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish oshganini kuzatamiz. Bu borada ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda, monografiya va kitoblar chop etilmoqda. T.Abdullayev, F.Yuldasheva, M.Karimova, M.Mamatov, A.Muratboyeva, N.Musayeva, S.Mahkamov, Ortiqova, F.Otaxo‘jayev, A.Orifxonova, F.Primova kabi

tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini bunga misol qilib keltirish mumkin. “Muqaddas Qur’oni karimda, hadis-u shariflarda, – deb ko‘rsatadi X.O.Shayxova, – “Alloh ayollar bilan yaxshi muomalada bo‘lishni tavsiya etadi, chunki ular onalaring, qizlaring, xolalaringdir. Jannat onalar oyog‘i ostidadir” kabi fikrlar keltirilgan. Hadislardan birida bir kishi Rasulullohdan, “Men kimga yaxshilik qilishim kerak”, deb so‘raganida Payg‘ambarimiz “Eng avvalo, onangga qilishing lozim. Chunki, bu ish burch, uzilmasligi kerak bo‘lgan qarindoshlikdir”, degan. Muqaddas kitobda “Ona duosi ijobatga loyiq. Uning qalbi hamisha ezgulikka moyil”, deyilgan”[3].

**Muhokama va natijalar.** Ayollarda ahil bo‘lib, oilaviy munosabatlarni va qarindosh-urug‘chilik aloqalarini asrab, mustahkamlab yashashga moyillik kuchlidir. Ayolning o‘zidan tajribali, bilimli va hayotiy tajribasi katta kishi bilan ittifoq bo‘lib, hatto unga itoat etib yashashida, aslida unda hayotni asrash, davom ettirish instinkti mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Ayollar hayotning mazmunini, barcha sa’y-harakatlarining mohiyatini farzandlarining tarbiyasi, kamolotida ko‘radi. Mazkur faoliyatida u shakllangan ma’naviy-axloqiy imperativlarga o‘zining hayotiy pozitsiyasiga, orzu-intilishlariga muvofiq yangilik kiritadi, qadimiy an’analarda transformatsiyaning ro‘y berishini ta’minlaydi. Ayollar, hatto an’analarni saqlash va ularga rioya etishda izchillik, sabr-toqat ko‘rsatganlarida ham davr talablariga muvofiq, an’analarga yangilik kiritadilar. Shuning uchun ma’naviy-axloqiy imperativlar mutlaq qotib qolgan an’analarni, normalarni emas, balki zamonaviy hayotga moslashib jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ma’naviy-axloqiy imperativlar milliy g‘oya va mafkura jarayonlari, ulardagi fundamental ahamiyatga ega fikrlar, yondashuvlar bilan ham bog‘liqdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: “Ayollarimizning baxti – xalqimiz, jamiyatimizning baxtidir”, [4] – dedilar. O‘zbekistonda xotin-qizlar va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi uchun ajratilayotgan mablag‘lardan nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarga moddiy yordam berish, ularni realibitatsiya vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi. Xususan, 2018-yilda bandlik dasturlari asosida yaratilgan, 245 ming nafar ishsiz xotin-qizlar ishga joylashtirildi. Mahallalar kesimida manzilli ro‘yxatlar shakllantirilib, alohida dastur asosida 10 ming nafarga yaqin og‘ir turmush sharoitida yashayotgan ayol bandligi ta’minlandi va bunga 38 mlrd. 261 mln. so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Respublika Oliy sudi bilan Xotin-qizlar qo‘mitasi o‘rtasida Memorandum imzolanib, ajrashishga arizaga berganlarning dastlab Xotin-qizlar qo‘mitasida suhbat o‘tkazish va ajrim yuzasidan xulosasini olish yo‘lga qo‘yildi. Ma’naviy-axloqiy imperativlar esa ana shu uyg‘unlikni mustahkamlashga, ularni xalq, millat manfaatlarini bilan muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu prinsip ayollarimizning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishida ham aks etadi. “Iymon keltirib, yaxshi amallar qilgan zotlarga xushxabar beringki, ular uchun ostlaridan daryolar oqib turuvchi bog‘lar bor...”, “Ilgari tatib ko‘rgan narsamiz-ku”, deyishadi. Zero ularga surati bir-biriga o‘xshash mevalar beriladi. Va ular uchun jannatda pokiza

juftlar bordir. U zotlar jannatda abadiy qolajaklar”[5]. Islom dinining ta’limotlaridan foydalanib, bobolarimizning barcha davrlarda yaratgan tarbiyaviy asarlari, go’zal hayotda tinch-osoyishta turmush kechirishlikning tub zamirida katta bilim va tartibli, bunda albatta sog’lom turmush tarzini to’g’ri yo’lga qo’yishlik, ekologik, estetik, ruhiy-ma’naviy, madaniy taraqqiy etishda insonlarning, oilalar mas’uliyati, ota-onalar mas’uliyati, farzandlar mas’uliyati, barcha-barcha burchlarning bajarilishi jamiyatning rivojlanishiga ijobiy foyda berishlari ko’zda tutilgan va amaliy namunalari o’z ifodasini topgan.

Barcha insondan bugungi kunda hayotini pok, qalbini faqat go’zal, turmushni to’g’ri maqsadlarga yo’naltira oladigan bilimli, tarbiyali ma’naviy-madaniy taraqqiyotida o’zining xolisona beminnat mehnatlari bilan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilgan holda ijobiy, ijodiy tushunchalari bilan o’z aqliy tafakkurlari orqali idrok etishini talab etadi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ta’biri bilan aytganda: “Bilim, ma’rifat, yaxshi axloq bezanmog’i lozim”. “Farzandlar tufayli mehnat quvonchga aylanadi, hayoti mazmun kasb etadi, o’lim dahshati nari chekinadi” (F.Bekon). “Farzandlar – oilani mustahkamlovchi rishtalardir” (V.G.Belenskiy). “Oila – insonni ezguliklar, ijod qilishga o’rgatadigan ilk muhitdir”[6] (V.A.Suxomlinskiy). “Mukammal ayol mukammal erkakka qaraganda ancha yuksak turadigan toifa. Lekin bu toifa vakillari ancha noyob sanaladi”[7] (F.Nitsche). Onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar har bir insonni o’z imkoniyatlarini ro’yobga chiqara oladigan ijodkor shaxs sifatida yangilanish va o’zgarishlarga ijtimoiy ong-u tafakkurida atrof-olamni tushunish hamda ma’naviy-amaliy, siyosiy-madaniy, iqtisodiy harakatlarga ijodiy izlanishlar orqali jamiyat taraqqiyotiga o’zining ongli faol mehnati, jonkuyarligi, fidoyiligi bilan el-yurtiga mehribon, hamjihatlik, tadbirkorlik bilan ish tuta oladigan avlodlar ta’lim-tarbiyasida oilaning, avvalambor birinchi o’rinda onalarning zimmasidagi mas’uliyatni o’z vaqtida bajarishiga hamda ijobiy natijalariga erishishini ta’minlashga bog’liq. Chunki, ayollar oilada farzandlarning tarbiyasi, bilimli, aqlli, ijobiy xislatlari bilan namunali shaxs sifatida shakllanib borishida juda katta ahamiyatga ega bo’lgan inson hisoblanadi. Farzandlariga o’zining ijobiy sifatlarini o’rgatish orqali to’g’ri tushunchalari bilan foydali, halol mehnati bilan amaliy namuna bo’la olgan ayollargina farzandlari kamolini ko’ra olishi, haqiqiy onalik burchini bajarayotgan ona sifatida o’z baxtini his qila oladi. Ayolning fahm-farosati, zukkoligi, uddaburonligi eng muhim bo’lgan hayotda doimiy o’z o’rnida juda kerakli va ularsiz har tomonlama insonlarni o’z muhim vazifalarini anglashi, qobiliyati bilan onalik burchini, farzand ta’lim-tarbiyasidagi mas’uliyati ortib boradi.

Insonlarning go’zal turmushga va go’zal hayotning tinchlik, osoyishtaligiga intilishida doimo bir hikmat bu Allohning bergan eng oliy ne’mati bu farzandlarining farovon turmushini,

yaxshilik, ezgulik, sabr-toqatli farzandlari-yu o'z xonadoni uchun qilinadigan mehnati evaziga ma'naviy-axloqiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishiga estetik-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy, ijtimoiy, ijobiy, ijodiy hamkorliklarga boyitib, zamonga mos holda o'z moslashuvi bilan birga barcha zamon ijrosida, albatta yuqoridan nazorat va o'z-o'zini nazorat jarayonlarini ham unutmagan holda hayot kechirishlikni unutmazlik ilmi, bilimli, o'z zamonasi rahnomalari orqaligina erishish lozimligini ko'rsatib kelmoqda. Demak, har bir asrlarni, yillarni, tarixiy kunlarni insoniyat o'z boshidan kechirishida o'z zamonasining buyuk qalb egalari sof, pok insonlarigina o'zining yuksak darajadagi bilimlari bilan fan-texnika, go'zal turmush taraqqiyotiga ijobiy va ijodiy tafakkurlari orqali o'zlarining beminnat mehnatlari, ulug' ishlari bilan barcha xunuk va nopok ishlarni bartaraf etadilar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "O'tgan bir yil davomida biz xalqimiz, jumladan, xotin-qizlar bilan muloqot olib borishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. Shu asosda qishloq va shaharlarimizda uyma-uy yurib, ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish, bu boradagi muammolarni hal etish bo'yicha samarali tizim yaratildi"[8], deb ta'kidladilar. Insonlarni jamiyatdagi va tabiat bilan uyg'unlikda dunyoni go'zal turmushi bilan go'zallikka yetaklovchi halol mehnati, pok turmushi bilangina Allohning bergan ne'matlariga shukronalıkları bilan sodiqlikni, sabr-toqati va mehnati, shijoatida o'zining har bir adolatli, pok, beg'ubor xizmatlari evaziga baxtini ko'ra olishadi. Inson o'zining go'zal turmushining namunasini yaratishi hamda amaliy ko'rinishlarda namoyon eta olishini, o'z xalqiga xos bo'lgan sifat jarayonlarni yaratishi, aqliy tafakkurini bebaho durdona kabi ijobiy fazilatlar bilan boyitib, insoniylikni mujassamlashtirib boradi.

Shu bilan birga, tadqiqotchi M.A.Karimova islomiy qadriyatlarining ayollar hayotidagi o'rnini baholashda obyektiv yondashib, quyidagilarni yozadi: "Islom mafkurasi, qadriyatlarida musulmonchilik turmush tarzi, ruhiyati, ongida muayyan mutaassiblik mayllari mavjud bo'lib kelganligiga qaramasdan (bu barcha jahon dinlariga birdek xos), tarixan islomda doimo demokratik mayllar (Sunna, Ra'y, Qiyos, Ijmo', Istihson va hokazo), shariat arkonlari, talab va taqiqlarda esa adolat, insof va qonuniylik, insoniylik yetakchi ustuvor mavqega ega bo'lib kelgan, zo'rlik zulmining yo'li kesilib, bir tomonlama behad boyib yoki qashshoqlashishning oldi olingan (zakot, Ri'boning taqiqlanganligi, Ba'yning halol, ya'ni halol ishbilarmonlikning rag'batlantirilganligi va hokazo). Islomiy qadriyatlar inson uchun oqilona tadbirkorlik, ishbilarmonlik qilishning keng imkoniyatlarini ochib bergan va rag'batlantirib turgan", "Islom qadriyatlaridagi ana shu demokratik mayllar aynan xotin-qizlar masalasida ham ustuvorlik qilgan. Ayollarning jamiyatdagi faolligi, ishbilarmonligi, tadbir bilan oila yuritishi qo'llab-quvvatlangan"[9].

Ayollarda ahil bo'lib, oilaviy munosabatlarni va qarindosh-urug'chilik aloqalarini asrab, mustahkamlab yashashga moyillik kuchlidir. Ayol hayotni davom ettiruvchi mavjudot ekanini

yaxshi biladi, shuning uchun doimo tinchlik, birodarlik, ezgu amallar, yaratuvchilik tarafdoridir. Ayolning o'zidan tajribali, bilimli va hayotiy tajribasi katta kishi bilan ittifoq bo'lib, hatto unga itoat etib yashashida, aslida, unda hayotni asrash, davom ettirish instinkti mavjudligi ko'zga tashlanadi. Z.Freyd, E.Fromm, E.Erikson tadqiqotlarida ayol "libido" nishoni emas, balki hayotning davomchisi, uning his-tuyg'ulari, mayllari va xatti-harakatlari hayotni asrash instinkti bilan to'laligi ochib berilgan. Hind, yunon, rim mifologiyasida hayot belgisi bo'lgan yer, hosildorlik, go'zallik ma'budlari ayol qiyofasida tasvirlangan.

Hayotda har qanday inson o'zidan tajribali kishiga quloq tutish, bo'ysunish aslida sharqona odobdir. Bu o'rinda Konfutsiyning "Ota – ota, o'g'il – o'g'il, hukmdor – hukmdor, xizmatkor – xizmatkor bo'lsin", ya'ni har bir kishi ijtimoiy munosabatlarda o'z o'rnini, nimalarga hozir-u, nimalarda tajribasi katta kishilarga bo'ysunishi, ular bilan ittifoq, hamkorlik qilib yashashini bilishi zarur, degan o'giti esga tushadi. Hayotda o'z o'rnini noto'g'ri tasavvur etish, manmanlik kishini boshqalarga raqib qilib qo'yadi, natijada u yashayotgan yoki ishlayotgan jamoada o'zaro nizolar, "san-man" ko'payadi, bu esa odamlar o'rtasidagi munosabatlarga, ularning ma'naviyatiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham sharqona odob-axloq qoidalarida kamtarlik, hayo, ibo kabi fazilatlar nafaqat ayollarda, shuningdek, erkaklarda ham e'zozlangan.

Barkamol axloq va yaxshi xulq, kamtarlik, hayo, ibo birdaniga paydo bo'lmaydi. "Xalq axloqiy mezonlari, – deb yozadi falsafa fanlari doktori, professor T.Mahmudov, – ko'hna ona zamin bilan, Vatan deb atalmish mo'jiza bilan, uning jonli va jonsiz xilqati, quyoshi, havosi, bulog'-u daryolariga ruhiy rishtalar bilan bog'langan. Bu rishtalar xuddi ona vujudidan hayot nurini oluvchi bola kindigi singari ona zaminga ulangan. Ana shuning uchun axloqiy tasavvurlarimiz, adab maktabimiz pirovard natijada millat uchun, uning obro'si va istiqboli uchun xizmat qilsagina boshqalarda ehtirom va havas tuyg'ularini uyg'otadi. Ana shundagina millat o'z o'tmishini, taqdirini, urf-odatlarini unutmaydi. Yaxshi fazilatlar, odatlar, an'analar va imonli kishilar siymosi avlodlar yo'lini shamchiroq yanglig' yoritib boradi"[10].

**Xulosa.** Ayollar hayotning mazmunini, barcha sa'y-harakatlarining mohiyatini farzandlarining tarbiyasi, kamolotida ko'radi. Shuning uchun u topganini uyiga, oilasiga, farzandlariga tashiydi, o'zi yemay, ularning og'ziga tutadi. Farzand ko'rish, hayotning abadiyligini ta'minlash uchun ayol kerak bo'lsa hamma narsadan voz kechadi. Bu borada falsafa fanlari doktori V.Alimasov: "Mangulik uchun o'z bokiraligidan ayol voz kechgach, dunyoning bokiraligi haqida afsonalar to'qishga hojat qolmadi"[11], – deb yozgan edi. Shu bilan birga, ayol farzandlarini yetuk mutaxassis, el-yurtga yordami, foydasi tegadigan, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol shaxs sifatida ko'rishni istaydi. Respondentlarimizning 31 foizi farzandlarini – "e'tiborli, obro'li shaxs", 21 foizi – "ishbilarmon, tadbirkor", 12 foizi – "huquqshunos yoki ichki ishlar idoralari xodimi", 11 foizi – "malakali vrach yoki meditsina xodimi", 8 foizi – "san'atkor", 17 foizi "o'qituvchi, murabbiy"

sifatida ko‘rishni istaydi. Ularning barchasi farzandlarining “kelajagini porloq” ko‘radi, ya’ni o‘z orzu-umidlariga yetishiga ishonadi. “Farzandlaringiz sizning ishlaringizni davom ettirishini xohlaysizmi?”, - degan savolimizga respondent-ayollarning atigi 22 foizi – “ha”, 56 foizi – “yo‘q”, 20 foizi – “bilmayman”, 2 foizi “aytishim qiyin” deb javob bergan. Respondentlar ijtimoiy-siyosiy faoliyatni sertashvish, behalovat, yugur-yugurlardan iborat deb biladilar, goho esa ijtimoiy muhit va ma’muriy idoralar tomonidan yetarli e’zozlanmasligini ta’kidlashadi. Aynan shu bois ularning 56 foizi farzandlari mazkur faoliyat bilan shug‘ullanmasligini istaydilar. Bundan tashqari, ular ijtimoiy-siyosiy faollik yetarlicha moddiy rag‘batlantirilmasligini ham ta’kidlashadi. Ammo respondentlarning aksariyati farzandlarini el-yurtga xizmat qiladigan, obro‘li, e’tiborli, yuksak axloqiy-ma’naviy fazilatlariga ega shaxslar bo‘lib yetishishini orzu qiladilar. Ushbu tilak ularning farzandlar tarbiyasi bilan muntazam shug‘ullanishga, ularning sog‘lom o‘sishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishga undaydi.

#### Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

Мусаев Ф. Демократик ҳукукий давлат қуришнинг фалсафий-ҳукукий асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б. 37.

2. Ризоуддин ибн Фаҳриддин. Оила. – Тошкент.: Меҳнат, 1991. – Б. 9.

3. Шайхова Х.О. Маънавият – камолот кўзгуси. – Тошкент.: Ўқитувчи. 2010. Б. 85.

4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.-Тошкент.: «Ўзбекистон», 2018. Б.477.

5. Қуръони Карим ўзбекча изохли таржима Алоуддин Мансур «Чўлпон», Тошкент.: 1991.Б.30.

6. Тюриков В.И., Шоғуломов Р.Ш. Аёл-муқаддасан.-Т.: « Ёзувчи», 1999.194 б

7. Тюриков В.И., Шоғуломов Р.Ш. Аёл-муқаддасан.-Т.: « Ёзувчи», 1999.194 б

8. Мирзиёев Ш.М.Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.- Тошкент.: «Ўзбекистон»,2018.Б. 466-467.

9. Каримова М.А. Кўрсатилган асар. Б. 18

10. Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Т.: Шарқ, 2001. Б. 104-105.

11. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2007. Б. 277.